

Xalqaro Yozgi maktab natijalari

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida 2019 - yil 29 - aprel 5 - may kunlari tashkil etilgan Xalqaro Yozgi maktab (Summer School 2019) o'z nihoyasiga yetdi. Barcha ishtirokchilar, xalqaro mehmonlar, tashkiliy ishlarda qatnashganlar, institut rahbariyati tomonidan esdalik sovg'alari va sertifikatlar bilan taqdirlandilar.(International Summer School Sustainability Assessment of the Water -Energy-Food Nexus for Irrigated Agriculture: Interdisciplinary Approaches for Central Asia) kutilgandan yuqori saviyada tashkil etildi, barcha sharoitlar yaratib berildi.



Natija: Tashrif buyurgan Xalqaro oliv ta'lif muassasalari vakillari, mehmonlari, professor-o'qituvchilari bilan tanishish, tajriba almashish, ularning oliv ta'lif muassasalaridagi shart-sharoitlarni o'rGANISH. Ilmiy jihatdan, mavzu yuzasidan bugungi kundagi global hamda Respublikamizdagi muammolar, ularning yechimlari, tahlillar, bahsli savollar o'rtaga tashlandi hamda taqdimotlar tayyorlaniib, fikr-mulohazalar tinglandi.



Tajribali ishtirokchilar, professor-o'qituvchilarning mavzu yuzasidan o'z taqdimotlari bilan ishtirok etishdi, xorijiy tillarda suhbat olib borish orqali, nazariy bilimlar oz bo'lsada mustahkamlandi. Guruhlarga bo'lingan holda, o'quv-darslari olib borildi, mavzuga oid bo'lgan amaliyot obyektlari bilan tanishgan holda, mashg'ulotlar o'tkazildi.



Sport tadbirlari, ekskursiyalar, madaniy tadbirlar tashkil etildi. Muhimi, tashrif buyurgan Xalqaro mehmonlarimiz bilan talim sohasidagi aloqalar yanada yaxshilanib, do'stlik, hamjihatlikning oshishiga sabab bo'ldi desak, adashmagan bo'lamiz. Kelgusida ana shunday yozgi maktablarning ko'payishini taklif berib, ushbu Summer School - 2019 ni tashkil etish va yaxshi o'tishida o'z hissasini qo'shgan barchaga, shart-sharoitlarni yaratib bergen institut rahbariyatiga, institut Kasaba uyushmasi qo'mitasiga minnatdorchilik bildiramiz.



Institut yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi Akmal Berdimurodov

Institut matbuot kotib Rahimboy Jumaniyozov